




IV USTOZLAR MILLIY FORUMI

**MAVZU: TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY
INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH**


Fasilitator:
A.Mamatov





MAQSADLAR

Ushbu mashg'ulot davomida siz:



- 01** Sun'iy intellekt tushunchasi
- 02** Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari
- 03** Kasbiy faoliyatda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish metodlari
- 04** Ta'limga oid resurslarni ishlab chiqishda sun'iy intellektning imkoniyatlari




JAMIYAT 5.0 JARAYONI

JAMIYAT 1.0

Ovchilik va termachilik jamiyat

Insoniyat tarixi



JAMIYAT 2.0

Qishloq xo'jaligi jamiyat


Ilk milodiy yillar



JAMIYAT 3.0

Sanoat jamiyat

~XVIII asr oxiri



JAMIYAT 4.0

Axborot jamiyat

~XX asr oxiri



JAMIYAT 5.0

~XXI asrdan keyin

Super aqlii jamiyat

Sanoat 1.0
(Yengil sanoat)

Sanoat 2.0
(Og'ir va kimyo sanoati)

Sanoat 3.0
Kompyuter / Internet




INSON HAYOTINI YAXSHILASH UCHUN YECHIMLAR

Sanoat 4.0


Raqamli transformatsiya, AI, IoT, katta ma'lumotlar (Big Data), kengaytirilgan haqiqat, bulutli hisoblash, blokcheyn, avtonom robotlar, kiber-jismoniy tizimlar

Sanoat 5.0

IoE, sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahli qilish, raqamli egizaklar, Edge Computing, Blockchain, 6G va boshqalar



To'rtinchi (4.0) sanoat inqilobi texnologiyalari



Sun'iy intellekt

1956-yilda fanga kirib kelgan



Sun'iy intellekt (SI) – turli xil mavjudotlar, shu jumladan odamlar tomonidan ko'rsatiladigan tabiiy intellektdan farqli o'laroq, mashinalar tomonidan namoyish etilgan aqldir.



Reaktiv mashinalar

Real vaqtida tashqi ogohlantirishlarga javob berishga qodir texnologiya, lekin xotira bazasini qura olmaydi va kelajakda foydalanish uchun ma'lumotlarni saqlay olmaydi.



Cheklangan xotira

Bilimlarni saqlashi va kelajakdagi vazifalarni o'rGANISH va o'qitish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan mashinalar



Aql nazariyasi

Inson his-tuyg'ularini his qiladigan va ularga javob beradigan, shuningdek, cheklangan xotira mashinalarining vazifalarini bajaradigan SI tizimlari.



O'z-o'zini anglash

Bu SIning yakuniy bosqichi, bunda mashinalar nafaqat boshqalarning his-tuyg'ularini taniy oladi, balki o'zini his qilish va inson darajasidagi aqlga ega bo'lishi.

SIni yaratishda eng ko'p qo'llaniladigan texnologiyalar:



Mashinaviy o'qitish (Machine learning) - bu SI tizimiga ega kompyuterning aniq sxemalar va qoidalarga riosa qilmasdan ma'lumotlarni qayta ishlash natijalari asosida qaror qabul qilish qobiliyatidir. Boshqacha qilib aytganda, mashina juda ko'p xususiyatlarga ega bo'lgan odam uchun murakkab vazifalarda natijalarni qidirish, aniq javoblar va to'g'ri bashorat (prognoz) qilish qobiliyatiga ega bo'ladi.




Chuqur o'rganish (Deep learning) - katta hajmdagi ma'lumotlarda (Big Data) vazifalarni aniqlash imkonini beruvchi mashinaviy o'qitishning kichik bo'limi. Biologik neyron tarmoqlarga o'xshashlik asosida yaratilgan sun'iy neyron tarmoqlar chuqur o'rganish texnologiyasida ma'lumotlarni qayta ishlash bilan shug'ullanadi.




Tabiiy tilni qayta ishlash va yaratish - har qanday ma'lumotlarni kompyuter tomonidan tushunarli bo'lgan va odamlarga javob berish uchun ishlataladigan tabiiy tilga aylantirish uchun dasturiy ta'minotni kompilyatsiya qilish.

Misol: <https://teachablemachine.withgoogle.com>



Kundalik hayotimizdagi sun'iy intellektning 10 ta eng yaxshi namunasi



Sayohat va navigatsiya

Yandex, Google, Apple va boshqa ko'plab navigatsiya xizmatlari



Aqliy uy

Aqliy uyni ishlab chiqishda SI elementlaridan foydalinish kundan-kunga ortib bormoqda



Smartfonlar uchun ilovalar

Alice, Siri, Alexa va Google Assistant kabi telefonlarimizga o'rnatilgan aqliy ovozli yordamchilar



Musiqa va video oqimlari

Video va eshitgan musiqalarimizga o'xshashlarini taklif qilish SI tomonidan amalga oshirilmoqda



Ijtimoiy tarmoqlar tasmasi

Facebook, Twitter, Instagram, Vkontakte yoki boshqa ilovalar



Moliyaviy xizmatlar

Banklar texnologik ixtirolarni boshqa sohalarga qaraganda ertaroq qabul qilgan xizmatlardan biridir



Aqliy avtomobillar


SI kundalik hayotimizda o'z ishtirokini kuchaytiradigan yana bir soha aqliy avtomobillardir



Xavfsizlik va kuzatuv

SI yordamida bulling jarayonlarini tahlil qilish va turli xil xavfsizlik choralarini ko'rish mumkin

SI texnologiyalari qo'llaniladigan asosiy yo'nalishlar




SI ma'lumotlarni tahlil qilish orqali muammoni aniqlash va to'g'ri yechimlarni topishga yordam beradi. Shuningdek, tibbiyot sohasida bemorlarga diagnostika qo'yishda ham samarali hisoblanadi.

Asosiy yo'nalishlaridan yana biri bu korxona yoki tashkilotning ma'lumotlarini tahlil qilish orqali kelajagini prognoz qilish imkonini ham beradi. Bu asosan ishlab chiqarish korxonalarini uchun samarali yo'l hisoblanadi.

Yetarli raqamli ma'lumotlarga ega bo'lgan SI tizimlari muammoli vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilishda keng foydalaniylmoqda.

Xorijiy davlatlarda SI eng ko‘p qo‘llanilayotgan sohalar

01



02

03

04

05

06



Tibbiyot



Sanoat



Ta’lim



Qishloq xo‘jaligi



Transport va yo‘l harakati



Kundalik hayotda




TA'LIMDA SUN'iy INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH



Bularidan tashqari jahon miqyosida sun'iy intellektga asoslangan matn, tasvir va audio resurslar bilan ishlovchi texnologiyalarning ko'plab turlari mavjud. Ularning barchasi sun'iy intellektning tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), katta til modellari (LLM), mashinali o'qitish (ML) kabi modellari va algoritmlari yordamida, virtual yordamchi chat-botlar yaratishda keng qo'llaniladi.


TAVSIYA ETILADIGAN SUN'iy INTELLEKT VOSITALARI

UzbekVoice AI



UzbekVoice AI — o'zbek tilida nutqni matnga (STT) va matnni tabiiy ovozli ko'rinishga (TTS) o'tkazish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu vosita pedagoglarga dars materiallarini audio shaklga o'tkazish va o'quvchilar bilan eshitish orqali takrorlashni qo'llab-quvvatlash, ovozli ma'lumotlarni matnga aylantirish, hamda talaffuzni baholash kabi ovozli interfaol mashqlar yaratishda yordam beradi. Real vaqt rejimida ishlashi esa ta'lim jarayonida inklyuzivlik, faollik va baholash samaradorligini oshiradi.


Aisha AI




Aisha AI — ko'p tilli TTS va STT xizmatlarini, jumladan o'zbek tilidagi har xil toifadagi ovozlar majmuini taklif etadi. Bu pedagoglarga raqamli ta'lim resurslariga jonli ovoz qo'shish, og'zaki nutq mashqlari o'tkazishda yordam beradi. Ta'lim tizimlariga integratsiya qilish orqali esa mакtab va oliy ta'lim muassasalarida kontentlarni yaratish, talaffuzni tahlil qilish hamda o'quvchilarning resurslardan qulay va teng imkoniyatlarda foydalanish imkonini beradi.

TAVSIYA ETILADIGAN SUN'IY INTELLEKT VOSITALARI

Muxlisa AI



UzSummarize




Muxlisa AI — ta'lim jarayonida ko'plab imkoniyatlarni yaratish maqsadida quyidagi xizmatlarni yo'lga qo'ymoqda. Bular o'quvchilarga ovoz yordamida ma'lumot izlash, bu ayniqsa alohida e'tibor talab etiladigan bolalar uchun juda qulay. Shuningdek, u sinfdagi aqlii qurilmalarni boshqarish va darslarni interfaol qilishda yordam beradi. Pedagoglar esa ushbu yordamchi orqali ovozli o'yinlar tashkil etishi, o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirishlari mumkin.

Uzsummarize — uzun matnlar, rasmlar va PDF fayllardan sun'iy intellekt yordamida qisqa va aniq tavsiflar olishda yordam beradigan platforma. Ta'limda u pedagoglarga ta'lim resurslarini va qiziqarli flesh-kartalarni tayyorlashda, mavzularning asosiy mazmunini qisqacha izohlab berishda yordam beradi. O'quvchilarga esa mavzular bo'yicha eslatmalar, so'zlarni yodlashda flesh-kartalarni mustaqil tayyorlash jarayonida samarali ko'maklashadi.


TAVSIYA ETILADIGAN SUN'iy INTELLEKT VOSITALARI

Chat GPT



ChatGPT foydalanuvchilar savollarga javob berishi, fanlarga oid masalalarni yechishi, foydalanuvchilar taklifiga mos ravishda ularga rejalar va yo'riqnomalar tuzishda yordamlashishi, shu bilan bir qatorda u maqolalar, ijtimoiy media postlari, insholar, elektron pochta xabarlari hattoki Python, Java, C++ va boshqa ko'plab dasturlash tillarida dastur kodlarini yaratish kabi imkoniyatlarga ega.


Copilot



Copilot - ChatGPTga o'xshab foydalanuvchilar bilan qiziqarli hamda ular uchun foydali muloqotni tashkil qilish, foydalanuvchilar so'rovlariga javob berish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bundan tashqari javoblarga aniqlik kiritish uchun ularga bog'lanish havolalarini keltirib o'tib, Designer funksiyasi orqali yangi va kreativ rasmlarni yaratish imkonini beradi.


TAVSIYA ETILADIGAN SUN'iy INTELLEKT VOSITALARI

MathGPT



MathGPT murakkab matematik ifodalarni yechib beradi va ularni bosqichma-bosqich tushuntirib, izohlaydi. Ta'lum jarayonida bu o'quvchilarga qiyin mavzularni osonroq tushunishga yordam beradi. O'qituvchilarga esa uyga vazifalarni tekshirish, mavzuni ko'rgazmali tushuntirish va har bir o'quvchining darajasiga mos yondashishda qulaylik yaratadi. STEM fanlarida mustaqil o'rganishga katta ko'mak beradi.


Classpoint AI



ClassPoint AI sun'iy intellekt yordamida PowerPoint slaydlaridan viktorina savollarini yaratish uchun Microsoft PowerPoint bilan integratsiyalashgan innovatsion vositalidir. Classpoint AI turli xil interfaol vositalar yordamida viktorinalar orqali o'quvchilarni darslarda faol ishtiroy etishiga yordamlashadi, shu bilan birga, u darslarni qiziqarli tashkil etishi mumkin.


TAVSIYA ETILADIGAN SUN'iy INTELLEKT VOSITALARI

KREA AI



Krea AI – bu sun'iy intellektdan foydalangan holda matnlarni rasm, rasmlarni animatsion ko'rinishga o'tkazib beruvchi platformadir. Krea AI o'zining qulay interfeysi va turli funktsiyalari orqali yuqori sifatli vizual tasvirlarni osongina yaratishga yordam beradi.

REPLICATE AI




Replicate AI matnlarni rasmlarga o'tkazish, matnlar yordamida videolar yaratish, berilgan so'rovlarga mos matnlar hosil qilish va sifati past rasmlarni tiklash kabi bir qancha vazifalarni o'z ichiga oladi.

INTERFAOL TA'LIM RESURSLARINI YARATISH USULLARI (PDV)



Kahoot!





MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA
ILMIY-METODIK MARKAZI



Respublika
Ta'lif Markazi



Savollar bo'lsa marhamat...

Ishtirokingiz uchun rahmat!



Rasmiy sayt
trm.uz



Telegram
t.me/trm_uz



Facebook
facebook.com/trmuz